

“TASDIQLAYMAN”
Yoshlar ishlari agentligi
Qarshi shahar bo‘limi boshlig‘i



J.Shodiyev
2022 yil

B U Y U R T M A C H I:

Yoshlar ishlari agentligi Qarshi shahar bo‘limi

**Qarshi shahrida 30-iyun - “Yoshlar kuni”ga bag‘ishlab o‘tkaziladigan
“O‘zbekiston yoshlari forumi”ni tashkil etish**

TANLOV XUJJATLARI

TANLOV HUJJATLARINING MAZMUNI VA ISHTIROKCHILARI UCHUN YO'RIQNOMA:

Ushbu yo'riqnomalar 2021-yil 22-apreldagi №684-sonli O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risidagi Qonuniga asosan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018-yil 26-mayda №3016-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyixa Boshqaruvi Milliy Agentligining "Xarid tartib-tamoyillarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi" tartibi asosida ishlab chiqildi.

1. TANLOV PREDMET VA TAXMINIY QIYMATI:

O'zbekiston Respublikasi Bosh Vazirining 2022-yil 13-iyun kuni o'tkazilgan "30-iyun - "Yoshlar kuni"ga bag'ishlab o'tkaziladigan "O'zbekiston yoshlari forumi"ni tashkil etish to'g'risida"gi yig'ilishining 128-sonli bayoniga asosan Qarshi shahrida joriy yilning viloyat bo'yicha 22-iyun kuni Qashqadaryo sohilida va Qarshi shahar bo'yicha 24-iyun kuni Geolog stadionida "30-iyun - "Yoshlar kuni"ga bag'ishlab "O'zbekiston yoshlari forumi" tadbiri o'tkazish.

1.1 Qarshi shahar hokimligi vasiylik kengashining 2022-yil 20-iyundagi №BK-09/06-sonli qarorining 1-ilovaga muvofiq tadbirning umumiy so'mmasi boshqa xarajatlardan tashqari 247 400 000 (ikki yuz qirq yetti million to'rt yuz ming) so'mni tashkil etadi.

1.2. Ushbu qiymatdan ortiq qiymatdagi takliflar qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.

1.3. Ushbu tanlov yakunlari bo'yicha g'olib chiqqan tashkilot bilan shartnoma tuziladi.

1.4 Ishlarni bajarish sifatli bo'lishi shart.

2. TANLOV TASHKILOTCHILARI

"Yoshlar ishlari agentligi" Qarshi shahar bo'limi bundan keyin- Buyurtmachi, deb ataladi) - tanlov tashkilotchisi hisoblanadi.

"Buyurtmachi" manzili: Pochta manzili 180100, Qarshi shahar, Islom Karimov ko'chasi, 288-uy

Tanlov 'Buyurtmachi" tomonidan tanlovlardan o'tkazish bo'yicha tuzilgan tanlov komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

2.1 Tanlov "Yoshlar ishlari agentligi" Qarshi shahar bo'limi binosida "Buyurtmachi" tomonidan to'zilgan tanlov komissiyasi orqali qonunda belgilangan tartibda, belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

3. TANLOV ISHTIROKCHILARI

3.1 Tanlovda mulkchilik shaklidan qatiy nazar shu mazmunda ish va xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan, kamida 3 yil tajribaga ega bo'lgan barcha yuridik maqomga ega bo'lgan tashkilotlar ishtirok etishi mumkin.

3.2 Tanlovda ishtirok etishi uchun talabgorlarga quyidagi malakaviy talablar qo'yiladi:

-tanlov predmeti qiymatining kamida 20 foizi miqdoridagi aylanma mablag'larining yoki ko'rsatib o'tilgan mablag'larni berishga bank kafolatnomasi, ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun zarur bo'lgan mexnat resurslari va mutaxassislarning mavjudligi;

-shartnomalar tuzish yuzasidan fo'qarolik-muomala xuquqiy layoqat va vakolatlar;

-tanlov ob'ektiga o'xshash ob'ektlar bilan ishslash tajribasining mavjudligi;

-o'z kuchlari bilan ilgari bajarilgan ish xajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

-tanlov ob'ektida o'z kuchlari bilan bajariladigan ishlarning mo'ljallanayotgan xajmi (50 foizdan kam bo'lmaqan holda);

3.3 Agar tanlov predmeti bo'lgan ishlar (xizmatlar)ni bajarish bilan bog'liq faoliyat qonunchilikka binoan litsenziyalashtirishi zarur bo'lsa, tanlovda ishtirok etish uchun belgilangan tartibga muvofiq tegishli litsenziyaga ega bo'lgan talabgorlarga ruxsat etiladi.

3.4 Quyidagi talabgorlarga tanlov jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi:

-qayta tashkil etilish (ajratilishi, qushilish), tugatish yoki bankrotlik arafasida turganlar; mol-mulki musodara qilinganlar, hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-xuquqiy yoki bir biriga moliyaviy raqamligi mavjudlar.

3.5 Tanlov ishtirokchilari - talabgor tashkilotlar tanlov predmetining loyixa xujjatlari, xususan, loyixani grafik qismi (chizmalari) bilan tanishib chiqish va tanlov taklifini tuzish uchun buyurtmachiga (tanlov tashkilotchisiga) takdim etilishi haqida murojaat qilishga xaqlidirlar.

Besh tashabbus bo'yicha mutaxassis:

M.Sultonova